

**KUTUBXONA VA MUZEY – TA'LIM, TARBIYA VA AXBOROT
MASKANI**

*Andijon davlat pedagogika instituti
aniq va tabiiy fanlar fakulteti
biologiya yo'nalishi 203-gurux talabasi*

To'lanboyeva Marjona

Numonova Zaynabxon

Annotatsiya: Ushbu maqolada kutubxona va muzeylarning ta'lim, tarbiya va axborot makonlari sifatidagi o'zaro sinergiyasi tahlil qilinadi. Kutubxonaning bilim uzatish, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish hamda ishonchli axborot manbai bo'lishdagi o'rni yoritilgan. Muzeylarning esa tarixiy xotirani saqlash, ko'rgazmali ta'limni rivojlantirish, milliy o'zlikni anglash va estetik tarbiya berishdagi funksiyalari ko'rib chiqiladi. Maqolada ushbu ikki ma'naviy maskanning bir-birini to'ldiruvchi hamkorligi yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti va ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: kutubxona, muzey, ma'naviyat, ta'lim, tarbiya, axborot maskani, tarixiy xotira, madaniy meros, kitobxonlik madaniyati, estetik tarbiya, milliy o'zlik, ilmiy-ma'rifiy faoliyat, raqamli resurslar, ko'rgazmali ta'lim, madaniy muassasalar sinergiyasi.

Abstract: This article examines the synergy between libraries and museums as integrated centers of education, upbringing, and information. It highlights the role of libraries in providing continuous learning opportunities, fostering a culture of reading, and offering reliable informational resources. The study also discusses museums as custodians of historical memory, emphasizing their contribution to visual learning, the development of national identity, and aesthetic education. The article concludes that the complementary collaboration between libraries and museums plays a crucial role in shaping the intellectual and moral

development of younger generations.

Keywords: Library, museum, spirituality, education, upbringing, information center, historical memory, cultural heritage, reading culture, aesthetic education, national identity, scholarly and educational activities, digital resources, visual learning, synergy of cultural institutions.

Аннотация: В данной статье анализируется синергия библиотек и музеев как центров образования, воспитания и информации. Рассматривается роль библиотеки в распространении знаний, формировании культуры чтения и обеспечении достоверных информационных ресурсов. Подчеркиваются функции музеев как хранителей исторической памяти, их значение в визуальном обучении, развитии национальной идентичности и эстетического воспитания. В статье делается вывод о том, что взаимодействие этих двух культурно-просветительских институтов играет важную роль в формировании мировоззрения и духовно-нравственного роста молодого поколения

Ключевые слова: Библиотека, музей, духовность, образование, воспитание, информационный центр, историческая память, культурное наследие, культура чтения, эстетическое воспитание, национальная идентичность, научно-просветительская деятельность, цифровые ресурсы, визуальное обучение, синергия культурных учреждений.

Jamiyat taraqqiyotining asosiy omili – bilimli, ma'naviyatli va keng dunyoqarashga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalashdir. Bu jarayonda kutubxona va muzey kabi ikki ulkan ma'rifat maskani muhim, hatto hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular shunchaki kitoblar yoki eksponatlar saqlanadigan joy emas, balki asrlar osha to'plangan bilim, tarixiy xotira va madaniy qadriyatlarni bugungi avlodga yetkazuvchi, ta'lim, tarbiya va axborotning uyg'unlashgan markazidir. Zamonaviy kutubxonalar endi tosh devorlar orasidagi jimjit xazina emas, balki dinamik axborot uzatish tizimi hisoblanadi. XXI asr talablari ostida, an'anaviy kutubxona tizimi o'zining ko'lamini, xizmat turlarini va o'quvchilar bilan muloqot shakllarini tubdan

o'zgartirib, raqamli transformatsiya yo'liga o'tdi. Bu jarayon kutubxonalarning ta'lim va axborot maskani sifatidagi ahamiyatini yanada oshirdi.

Kutubxona va muzeylar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi ma'naviyat maskanlaridir. Ular insoniyatning madaniy va ilmiy merosini saqlab, targ'ibot hamda yangi avlodga yetkazishda beqiyos ahamiyatga ega. Kutubxonalar kitoblar, ilmiy manbalar va turli xil nashrlarni bir joyga jamlash, tartiblash va har bir fuqaroga foydalanishi uchun qulay tartibni yaratishni o'ziga maqsad qilgan. Muzeylar esa turli tarixiy, tabiiy, madaniy yodgorliklarni, san'at va hunarmandchilik namunalarini jamlab, ularni namoyish etish orqali tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada kutubxona va muzeylarning ta'lim-tarbiya hamda axborot yetkazishdagi o'rni tahlil qilinadi.

Kutubxona: Bilim va Axborot Markazi

Kutubxona insoniyat tarixining eng qadriyatli axborot markazlaridan biri hisoblanadi. Ular orqali bilim olish, ijodiy izlanish, ilmiy va madaniy taraqqiyotni rag'batlantirish. Zamonaviy kutubxonalar quyidagi ijodiy ishlarni amalga oshiradi:

Bilim olish maskani – Kutubxonalar talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar uchun o'zim kerakli bo'lgan kitoblar bilan ta'minlash.

Ilmiy-ijodiy markazi – Ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun zarur manbalar jamlandi va saqlanadi.

Axborot tarqatish vositasi – Elektron kutubxonalar orqali internet orqali tezkor ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi.

Madaniyat va ma'naviyat maskani – Adabiyot, san'at va tarix bilan bog'liq tadbirlar o'tkazish, insonlarning ma'naviyatini boyitadi.

Kutubxonaning rivojlanishi – Zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq holda kitob fondini elektron kataloglarga, elektron kutubxonalarga o'tkazish, onlayn kataloglar yaratish bugungi kunda ilmiy va madaniy merosni uzoq yillarga yetkazib berish imkoniyatini yaratmoqda.

Muzey: Tarix va Madaniyat Merosi Xazinasini

Muzeylar insoniyatning moddiy va nomoddiy madaniy merosini saqlab, tadqiq etish va targ'ib qilish ishlarini olib boradi. Ularning asosiy vazifalari

quyidagilardan iborat:

Tarixni saqlash vositasi – Muzeylar qadimgi buyumlar, san'at asarlari va hujjatlar orqali tarixni bilimlarga yetkazadi.

Tarbiyaviy markazi – Muzey eksponatlari orqali yosh avlodga tarix va ma'naviyat haqida tushuncha beradi.

Turizm va madaniy rivojlanish – Muzeylar sayyohlar va mahalliy aholi uchun madaniyatni o'rganish, tarixni o'rganish joyidir.

Ilmiy-tadqiqot markazi – Arxeologik, san'atshunoslik va tarixiy tadqiqotlar olib borish uchun muhim manbalar joyidir.

Muzeylarning yangi ishlash tamoyillari – Hozirgi kunda ular ta'lim, axborot almashinuvi, san'at va fan texnikasi sohalaridagi ishlarni rivojlantirishga e'tibor beradi. Zamonaviy muzeylar turli ko'rgazmalar, virtual tur va raqamli xizmatlar orqali axborot olish imkoniyatini kengaytirmoqda.

Kutubxona va Muzeylarning Ta'lim-tarbiyadagi O'rni

Kutubxona va muzeylar ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ularning quyidagi jihatlari muhim hisoblanadi:

* Tarbiyaviy ahamiyat – Tarixiy va madaniy merosimizni yosh avlodga yetkazish orqali milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish.

* Ijodiy fikrlashni rivojlantirish – San'at va tarixiy asarlar (jadidlik davri, adabiy asarlar) orqali yoshlarning ijodiy salohiyatini oshirish.

* Innovatsion texnologiyalar bilan ishlash malakasini – Elektron kutubxonalar va virtual muzeylar bilan ishlash orqali zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Kutubxona va muzeylarning ma'naviyat maskani sifatidagi o'rni beqiyosdir. Shu sababli, ulardan samarali foydalanish, yosh avlodni bilimli, ziyoli va ma'naviy yetuk etib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Xulosa

Kutubxona va muzeylar insoniyat madaniy merosining asosiy qismini tashkil etadi. Ular bilim olish, axborot olish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ma'naviyatni shakllantirish uchun muhim markazlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, D. Libraries, Museums, and Archives: Cultural Institutions in the 21st Century. Routledge, 2019.
2. Bennett, T. The Birth of the Museum: History, Theory, Politics. Routledge, 1995.
3. Black, A. A New History of Libraries and Reading. Cambridge University Press, 2011.
4. Gill, P., et al. The Role of Libraries in Lifelong Learning. UNESCO Guidelines, 2008.
5. Hooper-Greenhill, E. Museums and Education: Purpose, Pedagogy, Performance. Routledge, 2007.
6. Macdonald, S. (Ed.). A Companion to Museum Studies. Wiley-Blackwell, 2011.